



# ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar-fevral*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidandir.

2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **7 124** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevralga nisbatan **1 482** taga kamaygan (o'sish sur'ati **82,8** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **12** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **7 112** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **2 428,6** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **94,0** % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **206,5** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **113,6** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **2 222,1** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **92,6** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **346,9** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **92,7** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm	2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 428,6</b>	<b>94,0</b>	<b>206,5</b>	<b>113,6</b>	<b>2 222,1</b>	<b>92,6</b>
Andijon sh.	860,0	99,6	144,5	138,9	715,5	94,2
Xonobod sh.	31,0	92,7	1,3	97,1	29,7	92,5
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'l	64,1	82,4	1,4	30,5	62,7	85,6
Andijon	132,0	81,4	12,8	50,3	119,2	87,2
Baliqchi	82,2	94,6	9,8	161,4	72,4	89,5
Bo'ston	40,6	82,4	1,2	46,2	39,4	84,4
Buloqboshi	107,0	91,3	1,4	54,1	105,6	92,1
Jalaquduq	112,4	96,2	7,9	2,9 m.	104,5	91,6
Izboskan	88,2	89,2	2,1	159,3	86,1	88,2
Ulug'nor	36,6	91,3	0,4	64,6	36,2	91,7
Qo'rg'ontepa	83,1	90,6	1,6	44,4	81,5	92,5
Asaka	119,5	94,9	7,9	76,4	111,6	96,5
Marhamat	117,2	91,6	2,9	88,6	114,3	91,6
Shahrixon	311,4	94,6	5,1	95,3	306,3	94,6
Paxtaobod	137,6	95,4	3,5	70,4	134,1	96,2
Xo'jaobod	105,7	90,4	2,7	91,7	103,0	90,3

2023- yilning yanvar-fevral oylarida 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Andijon shahri (**99,6** %), Jalaquduq (**96,2** %), Paxtaobod (**95,4** %) va Asaka (**94,9** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar-fevral, mlrd so'm)




So'nggi **6 yillikda** (2018-2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **110,9 %** ni yoki **2 716,2** mlrd so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati  
oylar kesimida (foizda)  
(2022- yil, 2023- yil yanvar-fevral oylari)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 94,0 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri **35,4 %** bilan **860,0** mlrd so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri **1,3 %** bilan **31,0** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **2 222,1** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **7,4** % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,5** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **13,6** % ga o'sdi va **206,5** mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,5** % ulushiga to'g'ri keldi.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ulug'nor (**99,0 %**), Buloqboshi (**98,8 %**) va Shahrixon (**98,4 %**) tumanlariari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **8,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (**16,8 %**), Baliqchi (**12,0 %**), Jalaquduq (**14,5 %**), Andijon (**9,7 %**) tumanlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>738,6</b>	<b>92,1</b>
Andijon shahar	1 856,3	97,6
Xonobod shahar	695,6	90,8
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	342,7	80,5
Andijon	476,8	79,5
Baliqchi	392,9	92,7
Bo'ston	538,0	80,7
Buloqboshi	720,8	89,7
Jalaquduq	581,3	94,5
Izboskan	355,8	87,5
Ulug'nor	586,6	89,5
Qo'rg'ontepa	371,0	89,0
Asaka	347,6	92,8
Marhamat	649,2	89,7
Shahrixon	992,9	92,5
Paxtaobod	681,3	93,3
Xo'jaobod	913,8	88,2


2023- yilning yanvar-fevral holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **738,6** ming so'mni (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **92,1** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**1 856,3** ming so'm), Shahrixon (**992,9** ming so'm) va Xo'jaobod (**913,8** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **346,9** mlrd so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **92,7** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **124,9** mlrd so'mni (97,8 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **222,0** mlrd so'mni tashkil etdi (**90,0** %).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.










## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>346,9</b>	<b>92,7</b>	<b>124,9</b>	<b>97,8</b>	<b>222,0</b>	<b>90,0</b>
Andijon shahar	79,6	99,4	41,2	114,6	38,4	87,0
Xonobod shahar	0,6	82,2	0,6	82,2	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'l	4,8	107,8	2,4	138,9	2,4	87,9
Andijon	11,6	90,7	11,6	90,7	-	-
Baliqchi	19,6	84,0	3,9	160,2	15,7	75,1
Bo'ston	2,3	93,9	1,1	92,6	1,2	95,0
Buloqboshi	9,8	85,2	2,2	81,8	7,6	86,2
Jalaquduq	6,1	80,2	0,7	36,6	5,4	94,2
Izboskan	3,0	85,1	0,9	95,6	2,1	81,5
Ulug'nor	12,5	100,3	0,3	41,3	12,2	103,4
Qo'rg'ontepa	8,0	82,8	3,7	73,2	4,3	93,2
Asaka	35,8	100,0	14,5	90,0	21,3	108,3
Marhamat	22,2	78,3	8,1	81,6	14,1	76,6
Shahrixon	80,3	93,5	23,0	123,8	57,3	85,2
Paxtaobod	34,4	100,3	8,3	64,0	26,1	122,7
Xo'jaobod	16,3	75,8	2,4	58,7	13,9	79,7

- – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;
- – jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.













2023- yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **124,9** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm non va non mahsulotlari savdosiga (**37,8** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrld so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	37,5
	Non va non mahsulotlari	37,8
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	19,3
	Tovuq go'shti	5,7
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	5,9
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	3,9
	Tuxum	3,6
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak	0,6
	Ziravorlar	6,5
	Tuzlamalar	3,9
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,2
	Nooziq-ovqat tovarlari	-

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-fevral oyida, respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **222,0** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **185,4** mlrd so‘m, qo‘y va echkilar - **32,5** mlrd so‘mni, otlar - **2,2** mlrd so‘mni, parrandalar - **1,8** mlrd so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	111,4
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	44,5
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	29,5
	Qo‘ylar	31,6
	Otlar	2,2
	Echkilar	0,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,2
	Tovuqlar	0,5
	Quyionlar	0,1
	Qushlar	0,1

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 429** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **528** taga kamaygan va o'sish sur'ati **73,0 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 428** tani tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi **2,0 %** ni tashkil etib, **49,9** mlrd so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,6 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **91,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


	Jami mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>49,9</b>	<b>102,6</b>	<b>4,2</b>	<b>-</b>	<b>45,7</b>	<b>94,0</b>
Andijon sh.	25,9	113,2	4,2	-	21,7	93,6
Xonobod sh.	0,7	93,6	-	-	0,7	
<i>tumanlar :</i>						92,6
Oltinko'l	1,4	92,6	-	-	1,4	93,2
Andijon	2,1	93,2	-	-	2,1	93,0
Baliqchi	1,9	93,0	-	-	1,9	92,9
Bo'ston	0,7	92,9	-	-	0,7	94,3
Buloqboshi	0,7	94,3	-	-	0,7	93,8
Jalaquduq	1,0	93,8	-	-	1,0	93,0
Izboskan	1,5	93,0	-	-	1,5	93,5
Ulug'nor	0,6	93,5	-	-	0,6	92,5
Qo'rg'ontepa	1,4	92,5	-	-	1,4	92,5
Asaka	2,9	92,5	-	-	2,9	95,9
Marhamat	1,4	95,9	-	-	1,4	92,8
Shahrixon	4,3	92,8	-	-	4,3	93,4
Paxtaobod	1,3	93,4	-	-	1,3	93,0
Xo'jaobod	2,1	93,0	-	-	2,1	93,6



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **460,5** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **3,9** % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **201,4** mlrd so'm (o'sish sur'ati - **86,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi - **259,1** mlrd so'mni (o'sish sur'ati - **105,4** %) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mln so'm	Ulushi, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>460 533,8</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	345 971,9	75,1
Xonobod sh.	103,7	0,02
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	24 095,2	5,2
Andijon	1 313,3	0,3
Baliqchi	60,8	0,01
Bo'ston	132,6	0,03
Buloqboshi	132,6	0,03
Jalaquduq	33,1	0,01
Izboskan	66,3	0,01
Ulug'nor	99,4	0,02
Qo'rg'ontepa	66,3	0,01
Asaka	44 242,2	9,6
Marhamat	122,6	0,03
Shahrixon	244,0	0,1
Paxtaobod	132,6	0,03
Xo'jaobod	43 717,2	9,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (**346,0** mlrd so'm), Xo'jaobod (**43,7** mlrd so'm) va Asaka (**44,2** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **515,1** mlrd so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,1 %** ga kamaydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **453,9** mlrd so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **94,3 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,1 %** ni tashkil qildi.



# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES KORXONALARI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Andijon shahrida (**198,8 %**), Marhamat (**16,9 m.**) va Oltinko'l (**110,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **3 133** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **500** taga kamaygan, o'sish sur'ati **86,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **5** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 128** tani tashkil qildi.

	Jami mln so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mln so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mln so'm	2022- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
<b>Andijon viloyati</b>	<b>515 078,2</b>	<b>97,9</b>	<b>61 203,8</b>	<b>135,8</b>	<b>453 874,4</b>	<b>94,3</b>
Andijon sh.	245 611,2	113,7	56 133,8	198,8	189 477,4	100,9
Xonobod sh.	2 641,4	62,3	0,9	0,4	2 640,5	65,6
<i>tumanlar :</i>						
Oltinko'l	17 460,0	86,1	37,3	110,9	17 422,7	86,1
Andijon	25 736,1	75,6	1 401,9	14,9	24 334,2	98,7
Baliqchi	30 809,8	114,9	33,0	34,1	30 776,9	115,2
Bo'ston	14 630,2	69,9	17,4	53,6	14 612,8	70,0
Buloqboshi	12 148,2	176,9	-	-	12 148,2	176,9
Jalaquduq	8 734,5	132,4	-	-	8 734,5	133,3
Izboskan	7 640,6	77,4	-	-	7 640,6	77,7
Ulug'nor	4 345,6	152,6	4,5	18,2	4 341,1	153,8
Qo'rg'ontepa	8 299,9	120,7	-	-	8 299,9	120,7
Asaka	13 885,0	70,1	2,3	19,9	13 882,7	70,1
Marhamat	5 531,7	4,0 m.	3 526,5	16,9 m.	2 005,1	170,2
Shahrixon	98 854,9	73,6	7,8	0,1	98 847,0	77,3
Paxtaobod	9 625,3	80,3	23,1	29,6	9 602,3	80,7
Xo'jaobod	9 123,8	2,7 m.	15,3	23,6	9 108,5	2,8 m.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. - 74 228-30-57**